

**QASHQADARYO VILOYATI YAKKABOG‘ TUMANIDAGI IMOM YAQUB  
QADAMJOSI VA UNING LINGVISTIK TAHLILI.**

**Abduraxmanova Zumrad Normurot qizi**

Toshkent viloyati Nurafshon shahri 10-umumta’lim maktabi ona tili va adabiyoti fani  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Yurtimizda hozirda barcha fanlar qatorida tilshunoslik fani ham rivojlanib bormoqda. Bu sohaning har bir tarkibiy qismiga e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, joy nomlari ularning kelib chiqishi, leksik-semantik tasnifi, toponimning til mahsuli sifatidagi tutgan ahamiyati. Qadamjolarining geografiya, tarix, filologiya fanlarining “simbiozi” sifatidagi o‘ziga xos jihatlari haqida fikr bildirildi. Imom Yaqub qadamjosining leksik tahlili va bugungi kundagi ahamiyati haqidagi fikr yuritildi.

**Annotation:** Currently, the field of linguistics, along with all other sciences in our country, is developing. Attention is being paid to every aspect of this field. This includes the names of places, their origins, lexical-semantic classification, and the significance of toponyms as a product of language. The unique aspects of sacred places as a “symbiosis” of geography, history, and philology were discussed. The lexical analysis of Imam Yaqub's sacred site and its significance today were also examined.

**Kalit so‘zlar.** Toponim, toponimika tushunchasi. Imom Yaqub toponimi kelib chiqish tarixi, toponimning lingvistik talqini.

**Kirish.** Bizga ma’lumki, har qanday geografik nom – bu dunyoni anglash, ma’lum bir hududdagi kishilarning hayot tarzi va madaniyati haqidagi tushunchalar o‘z ifodasini topadi. Toponimika geografiyaning amaliy ehtiyojlari ta’sirida vujudga kelgan. Chunki, uning o‘rganish obyekti bo‘lgan toponim-geografik muhitning mahsuli sifatida, geografik obyektlarni bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi. Toponimikani biz ijtimoiy fan sohasi sifatidagi izohiga e’tibor qaratamiz.

Har qanday geografik nom ham ma’lum til qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Shuningdek, joy nomlari jamiyat tarixi bilan ham chambarchas bog‘liq, ularda muayyan tarixiy voqelik o‘z ifodasini topadi. Geografik obyektlarga qanday nom berish, eng avvalo jamiyatning muayyan bosqichidagi ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, agar toponimikaning metodologik asosini geografiya tashkil qilsa, unda tarix- vaqtidagi shartli belgisi, filologiya- har ikkisini leksik ifodasidir.

Shuni e’tiborga olib toponimakaning tilshunoslikning bir sohasi sifatida bugungi kundagi o‘rni va vazifasi juda muhimdir. Chunki har bir inson o‘zi yashab turgan hududning nomi, uning ma’no mohiyatini bilishi, undan g‘ururlanishi lozim. Har hudud nomida, uning madaniyati, urf-odat va an‘analari, tarixi haqidagi haqiqat yashringan bo‘ladi. Shuning uchun ham toponimlarni lingvistik jihatdan o‘rganish, nomning kelib chiqishi va joylashuviga oid fikrlarni qiyoslash va til qonuniyatlari jihatdan solishtirish orqali biz yurtimizdagi toponimlarning o‘ziga xos jihatlarni aniqlab, tilshunosligimizning yana bir sohasi rivojiga hissa qo‘shimiz. Shuni inobatga olib, hozir Imom Yaqub qadamjosining nomlanishiga diqqat qaratamiz.

Yakkabog‘ tumanidagi Imom Yaqub qishlog‘i haqida domla Ismoil Rayxonovning “ Abu Ubayda ibn Jarroh ziyoratgohi” kitobidan ko‘chirma: “ yirik davlat arbobi, mohir sarkarda va ilm-fan homiysi sifatida dunyo miqyosida mashhur siymolardan bo‘lgan

Sohibqiron Amir Temur hazratlari sharq mamlakatlari tarixi, Islom dini, payg'ambarlar tarixini yaxshi bilgan, bu masalalarda taniqli olimlar bilan bahsunoazaralar qilgan. Faoliyatining yana bir muhim jihati, u egallagan mamlakatlarida olim-u ulamolar, ilm-ma'rifat ahli bilan suhbat qurib, o'sha joylardagi tarixiy, me'moriy obidalar va buyuk siymolar, ayniqsa, islomiy ilmlar Islom diniga hissa qo'shgan ulug' zotlar, aziz-avliyolar haqida ma'lumotlar to'plar edi. Muqaddas qadamjolar, aziz insonlar maqbaralarini ziyorat qilib, hurmat bajo keltirardi. En muhimi- ushbu tabarruk siymolar ziyoratgohlari tuprog'idan(hokidan) olib kelib poytaxti Samarqandda yoki saltanatning boshqa shaharlarida ramziy maqbaralarini barpo ettirgan, ularni xalqimiz hozirgacha e'zozlab qadrlab ziyorat qilib kelmoqda .

Shunday xayrli ishlardan biri Imom Abu Yusuf hoklarini keltirganlaridir. Shu qishloqda yashaydigan yoshi ulug'larning aytishicha, Amir temur Bag'dod shahrini bosib olib, so'ng odatiga ko'ra u joydagi ulug' avliyo Imom Abu Yusuf qabrini ziyorat qiladi. 1392-yil u zotning hokini yurtiga jo'natadilar. Tuya qayerga borib to'xtasa, o'sha joyga hokni qabr shaklda qo'yish topshirig'ini beradilar. Avval u yerda hech kim yashamagan va qishloq bo'lmagan. Avliyo maqbarasi haqida eshitganlar kelib, ziyorat qila boshlagandan so'ng u yerda qishloq paydo bo'ladi. Shundan qishloqqa aziz avliyo nomi beriladi. Bugungi kunda qishloqdagi bu qabr ko'rinishidagi maqbaradan keyinchalik shu nom ostida katta masjid barpo etilgan. Bugungi kunda bu yerga kelib ziyorat qiluvchilar soni juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Leksik jihatdan bu nom atoqli ot sanalib, antratoponim sanaladi.

Antratoponim(yunoncha antros-odam)-kishi nomi bilan atalgan joy nomlari sanaladi. Yuqorida izohlangan Imom Yaqub qadamjosi ham antratoponim hisoblanadi. Bunday antratoponimlar yurtimizda juda ko'p. Ularning nomlanishiga oid bir-biridan qiziqarli ma'lumotlar va izohlar bor. Biz bu nomlarni kelib chiqishini o'rganish orqali ko'plab bilimlarga ega bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda yurtimizdagi azizlar yashab o'tgan joylar haqida o'rganish, ularning qilgan yaxshi amallaridan ibrat olib kelajakda komil, yetuk shaxs bo'lishimizga poydevor hozirlash o'z qo'limizda. Buyuklar izidan borish, ularga munosib avlod bo'lish har birimizning burchimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Dilmurod Luqmon, Imom Abu Yusuf Yaqub-T.: 2021-yil 39-41-betlar
2. T. Nafasov, V. Nafasova. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati-T.:yangi asr avlodi,2007-y
3. N.Xudoyqulova Toponimikaning mohiyati va terminologik tushunchalar to'g'risida. Oriental Renaissance:Innovative,education, natural and ocial sciences, 2022-y
4. S.Qorayev .Toponimika –T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006-y